

QIYOSIY SODDA GAPLARNING SINTAKTIK MAZMUNI
SYNTACTIC CONTENT OF COMPARATIVE SIMPLE SENTENCES
СИНТАКСИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ СРАВНИТЕЛЬНО ПРОСТЫХ
ПРЕДЛОЖЕНИЙ

Dadabayeva Shirin Shuhratovna

FarDU katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

shirindadabaeva92@mail.ru

Annotatsiya. Qiyoslash mazmunidagi sodda gaplar o'ziga xos murakkab sintaktik mazmunga ega bo'lganligi bilan boshqa soda gap turlaridan farqlanadi. Hususan, qiyoslash munosabatini ifodalovchi sodda gaplarda shakl va mazmun nomuvofiq tarzda, qo'shma gaplarda esa muvofiq tarzda shakllanadi. Ushbu maqolada qiyosiy sodda gaplarda shakl va mazmun masalasi o'zbek va ingliz tillari misolida tahlil etilgan.

Абстрактный. Простые сравнительные предложения отличаются от других типов простых предложений тем, что имеют свое сложное синтаксическое содержание. В частности, в простых предложениях, выражающих отношение сравнения, форма и содержание образуются непоследовательно, а в сложных предложениях - согласованно. В данной статье вопрос формы и содержания в относительно простых предложениях анализируется на примере узбекского и английского языков.

Abstract. Simple comparative sentences differ from other types of simple sentences in that they have their own complex syntactic content. In particular, in simple sentences expressing a relation of comparison, form and content are formed inconsistently, but in complex sentences - consistently. In this article, the issue of form and content in relatively simple sentences is analyzed using the example of the Uzbek and English languages.

Kalit so'zlar: propositiv uzv, modal uzv, kommunikativ uzv, diktum, sillogizm, presuppozitsiya, predikat

Ключевые слова: пропозитивный член, модальный член, коммуникативный член, изречение, силлогизм, пресуппозиция, предикат

Keywords: proposition, modality, communicative part, dictum, syllogism, presupposition, predicate.

Tilshunoslikda dastlab gaplarning shakliy tomoniga qo‘proq e‘tibor berilib, keyinchalik XX asrning 60-yillarida semantikaning shakllanishi boshqa til birliklari kabi gaplarning shakliy tomoni mazmuniy tomoni bilan birgalikda o‘rganila boshlandi.

Gapning mazmuniy tuzilishi jahon tilshunosligida N.D.Arutyunova (Arutyunova, 1976), O.Esperson (Esperson, 1958), N.Yu.Shvedova, O.I.Moskalskiy, Ye.P.Paducheva, V.G.Gak, G.Frege (Dadabayeva Sh,2023) kabi olimlarning ishlarida ko‘rish mumkin. O‘zbek tilshunosligida ushbu sohani rivojlantirgan olim N.Mahmudov hisoblanib, u sodda gaplarda shakl va mazmun munosabatini va qo‘shma gaplarni onomosiologik aspektida o‘rganish bo‘yicha ilmiy – tadqiqot ishlari olib bordi.(Mahmudov, 1995), (Dadabayeva, 2023)

Gapning mazmuniy tuzilishi uch uzvdan: *propozitiv, modal va kommunikativ* qismlardan iborat bo‘ladi.(Nurmonov, 2012) Ushbu qismlar bir-birini taqozo etgani holda, *propozitiv* uzv ular doirasida eng asosiysi hisoblanadi.

Propozitiv uzv bu tashqi olamdagi ma‘lum bir voqea-hodisaning ifodasi (voqealik) ya’ni, “har bir nutq egasining ongida mavjud bo‘lgan ob’ektiv reallikning in’ikosi, nutq vaziyatidir”dir. (Usmonova, 2016) U ba’zi–bir manbalarda *diktum* nomi bilan ham yuritiladi. Uning markazida predikat turadi. Demak, *propozitsiya aktant+predikat* ifodasidan iborat va uni reallashtiruvchi sintaktik tuzilish esa *ega +kesimdir*. (Nurmonov, 2012) Ba’zi hollarda bir predikatli gaplarda tejamkorlik tamoyili sababli birdan ortiq propozitsiyalar ishtirok etadi. Bunda ulardan biri presuppozitsiya (hukm) orqali ifodalanadi va unga ishora qiluvchi signallar (konstruksiyalar) orqali tushunib olinadi.

Sof qiyosiy sodda gaplarda, asosan, bir predikat, ikki va undan ortiq propositsiya ishtirok etadi, ulardan biri presuppozitsiya shaklda namoyon bo‘ladi. Masalan,

Qalb ko‘zdan oldinroq ko‘rar. (Maqol)

Ushbu lisoniy dalilda bir predikat *ko‘rar*, “*qalb ko‘rar*”, “*ko‘z ko‘rar*”, “*qalb ko‘zdan oldinroq ko‘rar*” kabilar yordamida uch propositsiya ishtirok etgan. Bu yerda *qalb ko‘rar* propositsiya bo‘lib, *qalbning ko‘zdan oldinroq ko‘rishi* eksplitsit propositsiya, *ko‘z ko‘rar* presuppozitsiya bo‘lib, u “-dan” kelishigi (signali) orqali ifoda etilmoqda.

Ko‘rinib turibdiki, qiyosiy sodda gaplarning sof turi ham murakkab mazmuniy tuzilishga ega bo‘lib, unda shakl va mazmun nomuvofiqdir, yani unda bir predikat va uch propositsiya ishtirok etadi. Ushbu holatni quyidagi formula orqali berish maqsadga muvofiqdir:

$$\text{SEM}C = P_3(P_1 + P_2 + V)$$

P – пропозиция;

V – предикат.

Ushbu holatning ingliz tilidagi qiyosiy sodda gaplarda kelishi:

You are stronger than this. (“The girl you left behind”)

Ushbu misolda bir predikat “*stronger*” va uch propositsiya ishtirok etgan:

1. *You are strong;*
2. *This is also strong;*
3. *(But) you are strong than this.*

Dastlabkisi (*You are strong*) propositsiya, ikkinchisi (*This is also strong*) presuppozitsiya shaklida kelib, u *than* ifodasi orqali yordamida tushunilmoqda. Uchinchisi (*(But) you are strong than this*) esa to‘liq, ya’ni eksplitsit propositsiyadir.

Yuqoridagi tahlillarga tayanib aytish mumkinki, ingliz tilidagi qiyosiy sodda gaplar quyidagi formula asosida o‘zining semantik tuzilishiga ega bo‘ladi va qiyosiy sodda gaplarning shakl va mazmuni o‘zaro nomuvofiq bo‘ladi:

$$\text{SEM}C = P_3(P_1 + V + P_2)$$

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, yuqorida tahlilga tortilgan lisoniy dalillar har ikki tilda ham qiyosiy sodda gaplarda shakl va mazmun o‘zaro nomuvofiq (*assimetrik*), qiyosiy munosabatni ifodalovchi qo‘shma gaplarda esa muvofiq (*simmetrik*) tarzda reallashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Арутюнова Н.Д, Предложение и его смысл. – Москва, 1976.-С.6.
2. Есперсен О. Философия грамматики.-Москва, 1958.-С.32-33.
3. Mahmudov N, Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi(sintaksis).- Toshkent., 1995.-B.218
4. Nurmonov A.Tanlangan asarlar. I jild. “Akademnashr”. Toshkent.,2012.-B.330.
5. Nurmonov A.Tanlangan asarlar.III jild. “Akademnashr”. Toshkent.,2012.-B.239.
6. Словянское языкознание.VII Международный съезд славистов. Доклады советской делегации.- Москва.1973.// Москальская О.И.Проблемы системного описания синтаксиса.- Москва,1974.//Падучева Е.В. О семантики синтаксиса.- Москва, 1974.
7. Usmonova H.Shakl va mazmun munosabatiga substansional yondashuv//Nutq madaniyati va tilshunoslikning dolzarb muammolari.-Farg‘ona,2016.-B.20
8. Шведова Н.Ю. О соотношенииграмматической и семантическойструктуры предложения.-Москва.1973
9. Dadabaeva, S. (2020, December). Comparison approach and its expessor language tools. In *Конференции*.
10. Dadabaeva, S. (2021). Comparative relations and their universal features. *Scientific journal of the Fergana State University*, (1), 25-25.
11. SH, D. S. (2023). Comparative Compound Sentence. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769)*, 1(6), 257-260.
12. Дадабаева, Ш., & Ахмедова, М. (2023). Қиёсий содда гапларда шакл ва мазмун масаласи. *barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 3(5), 57-60.

13. Dadabayeva, S. (2023). Comparative Lexico-Morphological Means in Languages. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 19, 63-68.
14. Дадабаева, Ш. (2021). Қиёслаш мазмунининг содда гаплар доирасида ифодаланиши. *Scientific journal of the Fergana State University*, (4), 45-45.
15. Ubaydullaeva, D. (2022). PROBLEMS OF DESCRIPTION, CLASSIFICATION AND METATALOGY OF COMPLEX SENTENCES IN MODERN LINGUISTICS. *Science and Innovation*, 1(6), 560-564.
16. Ubaydullaeva, D., & Yuldasheva, Z. (2020). POLYSEMY IN THE UZBEK LANGUAGE. In *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 234-235).